

XALQARO SOLIQQA TORTISHNING AYRIM MASALALARI

*Shoxboz MURODOV
Fiskal instituti magistranti*

Annotatsiya Maqolada xalqaro soliqqa tortishning asosiy tamoyillari va huquqiy asoslari hamda xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish masalalari tadqiq qilingan. Shuningdek, mamlakatlar soliq qonunchiligidagi xorijiy shaxslar va kompaniyalarini soliqqa tortishning umumiyligi tomonlari hamda xalqaro soliq munosabatlarning mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro soliq solish, ikki tomonlama soliq, xalqaro soliq munosabatlari, Jahan soliq kodeksi, milliy soliq siyosati.

Jahon hamjamiyati iqtisodiy tizimlari integratsiyasi va tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi xorijiy mamlakatlar soliq tizimlarini o‘zaro ta’siriga olib keldi. Turli malakatlarda soliqqa tortishni u yoki bu masalalariga bo‘lgan yondashuvlarni bir biriga mos kelmasligi nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish ana shunday masalalardan biridir.

Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish deganda ikki yoki undan ortiq mamlakatda bir soliq to‘lovchining faoliyati aynan bir xil yoki o‘xshash soliq turi bilan bir vaqtning o‘zida soliqqa tortish ifodalanadi.

Ikki tomonlama soliqqa tortishni belgilovchi ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- soliqqa tortish obyektining o‘xshashligi; soliqqa tortish subyektlarining o‘xshashligi;
- soliq to‘lash muddatining o‘xshashligi; soliq to‘loving bir xilligi va boshqalar.

Har bir mamlakatda soliq qonunchiligin kengaytirish va huquqiy jihatdan mustahkamlash, shuningdek, tovar, xizmat va kapitalni eksport qiluvchilarga soliq imtiyozlari berish bilan bog‘liq tadbirlarning umumiyligi yig‘indisi mamlakatning tashqi soliq siyosati deyiladi. Ushbu siyosatning qaysi tomonga yo‘nalishi muayyan

International Conference on Education and Innovation

vaziyatdan kelib chiqadi. U byudjet daromadlarini oshirish nuqtai nazaridan yoki eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadidan kelib chiqishi mumkin.

Ammo, shu narsani yoddan chiqarmaslik lozimki, bu sohada manyovrlashtirish imkoniyatlari ancha chegaralangan: yuqorida aytilganidek, hech bir mamlakat o'z fuqarolari yoki kapitali uchun boshqa mamlakatdan, mahalliy aholiga qo'llanilayotgan soliqqa tortishga nisbatan imtiyozliroq bo'lgan tartibni talab qilishga haqli emas. Xuddi shuningdek, hech bir mamlakat o'z hududida faoliyat yuritayotgan xorijiy fuqaro va shaxslarga, soliq yukini mahalliy aholidan keskin farq qiluvchi nisbatlarda oshirishga haqli emas. Bunday holatning yuz berishi, mazkur mamlakatning xorijiy bozorlaridagi faoliyatiga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

Aksariyat mamlakatlar soliq qonunchiligidagi xorijiy shaxslar va kompaniyalarni soliqqa tortishning faqatgina umumiy tomonlari belgilab beriladi va ular keyinchalik hukumat ko'rsatmalarida, sud qarorlarida, ma'lum milliy odatlarda va boshqalarda aniqlashtiriladi.

Har bir mamlakat uchun xalqaro soliq munosabatlarini tartibga solinishida quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi:

- bir yoklama chora-tadbirlar yoki milliy soliq siyosatining chora-tadbirlari bo'lib, boshqa mamlakatlar hukumatlari bilan hech qanaqa kelishuvlarsiz amalga oshiriladi (mamlakatda faoliyat yuritayotgan xorijliklar va mamlakatning xorijda faoliyat yuritayotgan fuqaro va korxonalariga nisbatan soliq tartibining belgilanishi);

- shartnomaviy chora-tadbirlar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama asosda (xalqaro kelishuv), yoki "soliqlarning garmonlashuvi" deb nomlanadigan kelishuvlar doirasida (ya'ni, ikki yoki undan ortiq shartlashayotgan mamlakatlarning milliy soliq siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish asosida)gi chora-tadbirlar.

Hozirgi kunda, amalda yuzdan ortiq soliq kelishuvlari mavjud. Bundan tashqari, u yoki bu darajada mamlakatlar o'rtasidagi soliq munosabatlariga tegishli bo'lgan turli xil xalqaro kelishuvlar ham mavjud. Umuman, soliq kelishuvlari bir nechta tur va ko'rinishga ega. Ulardan ayrimlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: ma'muriy

International Conference on Education and Innovation

yordam ko‘rsatish bo‘yicha kelishuvlar; “chegaralangan” soliq kelishuvlari; umumiy soliq kelishuvlari; hadya va merosdan olinadigan soliqlar bo‘yicha kelishuvlar; ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha soliq kelishuvlari va boshqalar.

Soliq kelishuvlari, ikki yoqlama soliqqa tortishga barham berish maqsadlaridan tashqari, muhim maqsad soliq to‘lashdan chetga chiqish holatlariga qarshi kurashni ko‘zlaydi. Ushbu sohada soliq kelishuvlari orqali soliq organlari hamkorligining asosi va tartibi belgilanadi. Shuning uchun ham, soliq kelishuvlarida daromadlarni yashirishga qarshi, chet elga daromadni yashirin tarzda o‘tkazishga qarshi soliq organlarining birgalikdagi kurashi bo‘yicha bir qator yo‘riqnomalar kiritiladi. Bu “doimiy faoliyat yurituvchi tashkilot”ning daromadlarini tartibga solish bo‘yicha yo‘riq; assotsiatsiyalashgan korxonalar to‘g‘risidagi modda (bosh kompaniya va filiallar o‘rtasida daromadlarni taqsimlash bo‘yicha tuzatishlar kiritishga imkon beradigan); alohida munosabatlar tufayli hamkorlar o‘rtasida foiz to‘lovlari va roylati bo‘yicha soliqqa tortiladigan daromadlardagi “xatolarni” to‘g‘rilash bo‘yicha shartlar va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Лещенко, С.К. Правовой механизм устранения двойного налогообложения / С.К. Лещенко // Промышленно-торговое право. –2008. – № 3. – С. 64-75.
2. Погорлецкий, А.И. Международное налогообложение: учебник / А.И.Погорлецкий. - СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2006. - С. 108.